TRIKOTAJ MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA QO'LLANILADIGAN TO'QIMACHILIK TOLALARNING TUZILISHI VA TAXLILI

[1]Karimov Nuriddin Mahamadjonovich
Namangan Institute of engineering and tecχnology Namangan, Uzbekistan,
nuriddin1989k@gmail.com +998939496304
[2]Xalikov Alisher Abduvoxidovich
Namangan Institute of engineering and tecχnology Namangan, Uzbekistan,
alisherxalikov259@gmail.com +998972552230

Annotatsiya
Maqolada to'qimachilik sun'iy va sintetik tolalarning barcha ko'rsatgichlari jadval asosida yoritilib, turli tolalar xususiyatlari va ularning turlari, olinish usullari, kimyoviy xossalari, tolaviy tarkiblari va yangi turdagi to'qima olish imkoniyatlari taxlili keltirilgan.

Annotation
The article covers all the indicators of textile artificial and synthetic fibers based on a table, andanalyzes the of various fibers and their types, methods of production, chemical properties, fiber composition, and the possibilities of obtaining new types of fabric.

Аннотация
В статье освещены все показатели текстильниых искусственных и синтетических волокон на основе таблицы, а также проанализированы свойства различных волокон и их видов, способы производства, химические свойства, состав волокон, возможности получения новых видов ткани.

Tayanch so'zlar: tola, ip, paxta, zig'ir, tabiiy ipak, viskoza, kapron, vinol, atsetat, lavsan, cho'ziluvchanlik, buraluvchanlik.
Key words: fiber, yarn, cotton, viscose, kapron, vinyl, acetate, lavsan, elasticity, torsion.
Ключевые слова: волокн, нить, хлопок, лен, натуральный шёлк, вискоза, капрон, винил, ацетат, лавсан, стрейч, крутка.

Bugungi kunda respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berishga qodir tabiiy xomashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan foydalanib ip, ipak va trikotaj matolardan yuqori sifatli va raqobatbardosh tikuv va trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish davlatimiz iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan biridir.
Quyidagi jadvalda sun'iy sintetik va kimyoviy tolalarning olinishi, talaviy tarkibi, xususiyatlari va ishlatilishi ko'plab taxlillar asosida keltirilgan. Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident qarori qabul qilindi. Qaror bilan xomashyoni qayta ishlash asosida bozor talablariga mos to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020–2025 yillarga mo'ljallangan maqsadli parametrlari tasdiqlandi. Bizga ma'lumki to'qimachilik va tikuv tirikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish bugungi kunda jadal sur'atlar bilanrivojlanib, takomillashib kelmoqda. Bu esa import va eksport miqyosini yanada kengaytirishga, sifatliy, raqobatbardosh va jahon standartlariga to'la javob bera oladigan trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarishni taqazo etadi. Bunda avvalo trikotaj maxsulotlari xom ashyo bazasini chuqur o'rganish, tolalarning tarkibiy qismini chuqur taxlil qilish va ularni tabiiy xom ashyo turlari bilan qo'llagan holda yanada sifatliy, tashqi va ichki ta'sirlarga bardoshliy va

ko’rinish jihatdan chiroyli maxsulot turlarini ishlab chiqarish muammoliy masala bo’lib kelmoqda. Shularni inobatga olgan holda quyidagi jadvalda sun’iy va sintetik tolalarning tarkibiy qisimlari, olinishi, afzallik va kamchiliklari, qo’llanish ko’lami keltirilib, ilmiy tadqiqot ishlarida barcha ko’rsatgichlari eng maqbul bo’lgan tola turlari aniqlanib, yangi to’qima turini olish imkoniyati mavjudligi o’rganilib tahlil qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, to’quv tirkotaj sanoatida ishlab chiqarilayotgan tabiiy, sun’iy va sintetik tolalarni hom ashyo bazasini toliq o’rganish juda muhum hisoblanadi. Bu bilan biz kelgusida turli tarkibli tolalar aralashmasidan yangi turdagi to’qimalar olish imkoniyatini qo’lga kiritishimiz mumkin. To’qimachilikda ishlab chiqarilayotgan tolalar ma’lum uzunlikka, noziklikka, egiluvchanlikka, mustahkamlilikka ega bo’lishi tolalar ustida olib borilgan tadqiqotlarga uzviy jihatdan bog’liqdir. Bugungi kunda bunday tola tarkibli trikotaj maxsulotlari ancha takomillashgan ammo biz yangi tarkibli to’qima turlarini olishga va ularni sifati, tashqi ko’rinishi jihatidan, gigienik va fizik-mexanik hususiyatlari yuqori bo’lgan to’qima turlarini olish alohida e’tibor talab etiladi. Misol uchun viskozani bo’yash juda oson lekin, nam tekkanda pishiqligini ancha yo’qotadi, kapron tolasi tabiiy ipakka qaraganda 2,5 barobar pishiq lekin gigroskopikligi ancha past, lavsan tolasi issiqqa chidamliy, yuvilganda o’z holatini o’zgartirmaydi lekin gigroskopikligi ancha past, nitron tolasi nurga chidamliligi bo’yicha barcha tolalardan ustun turadi lekin ishqalanishga chidamliligi hatto paxta tolasidan ham past turadi, vinol tolasi barcha sintetik tolalar ichida eng arzoni, yuvilganda esa mustahkamliligi 15-25% gacha kamayadi.

REFERENCES

[1]. https://qalampir.uz>news>preside…
[2]. Prezident to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatni yanada rivojlantirish choralari.
[3].“To’qimachilik materyalshunosligi” T.A.Ochilov, M.Qulmetov, S.A.Xamroyeva, Sh usmonova, T.A. Toyirova, B.T.To’raqulov. Toshkent 2017.
[4]. Uz.m.wikipedia.org>wiki//http://uz.m. Wikipedia.org>wiki.
[5]. Kimyoviy tolalarning olinishi, tuzilishi va xossalari. Buxoro davlat unversiteti Axborot texnologiyalar markazi@ 2019 Powered by ATM.